



BOLALARDA INTELLLEKTUAL QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI

O`rinova Feruza O`ljayevna

FarDU dotsenti, p.f.n

Qo`ziyeva Dilnoza Nomonjon qizi

FarDU talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada intellekt va aqil hamda uning maktabgacha yoshdagi bolalarda shakllanish va rivojlanish jarayonining xususiyatlari, bu jarayonda tarbiyachilarning o`rni va bu boradagi ilmiy izlanishlarlar haqida so`z yuritiladi

**Kalit so`zlar:** maktabgacha ta`lim, aqliy qobiliyat, intellekt, o`rta guruh, intellekt shakllari, bolalar, irsiy va ijtimoiy.

Bugungi kunda maktabgacha ta`lim tarbiyalanuvchilarining intellektual salohiyatini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Respublikamizdagi har bir maktabgacha tarbiya muassasalarida va maktabda hozirgi kunda intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish shaxsni shakllantiruvchi eng muhim omili sifatida qaralmoqda.

Yangicha ijtimoiy sharoitda maktabgacha yoshdagi bolalar ta`limini rivojlantirishning hozirgi bosqichida asosiy e`tibor bolaning shaxsiyatini har tomonlama rivojlantirishga qaratilishi kerak bo`ladi. Bunda qiziquvchanlik, maqsadlilik, mustaqillik, mas`uliyat, ijodkorlik, yosh avlodning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta`minlanish orqali jamiyat va davlatlarning raqobatbardoshligini ta`minlashga erishiladi.

Zeroki, Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev o`zining “Yangi O`zbekiston strategiyasi” nomli kitobida - “Bugun hayot yangicha fikrlash va ishlash, milliy “aql markazlari” mizni shakllantirishni talab etmoqda” deb alohida ta`kidlab o`tganlar.



Haqiqatdan ham, biz yaratishimiz kerak bo'lgan milliy aql markazlarimizda bolalar o'rganishi kerak bo'lgan ko'nikmalarga tanqidiy fikrlash, ijodiy fikrlash (ijodkorlik), hamkorlik, muloqot, jismoniy bilim, mantiqiy matematika va ijtimoiylashuv kabi ko'nikmalar kiradi. Bolalarda bu ko'nikmalarni tarkib topdirish uchun esa, albatta, maktabgacha ta'limga yangicha yondoshuvga asoslangan konsepsiyalarni joriy etish zaruriyati tug'iladi. Buning un esa bizda innovatsion texnologiyalarni maktabgacha ta'limga tatbiq etish va samarali yo'llarini izlab topish muammosi yuzaga keladi. Innovatsion ta'lim konsepsiyasi bolalarni texnik jihatdan rivojlangan dunyoga professional darajada tayyorlaydi.

Qobiliyatlar - faoliyat davomida namoyon bo'ladigan imkoniyatdir. Ko'pgina psixologlarning tadqiqotlari bilish qobiliyatlarining ancha erta paydo bo'lishi haqida ma'lumot beradi. Ularning miqdori predmetlarning o'ziga hos tomonlarini anglay olish, qiyin vaziyatlarni hal qilish qobiliyati, kuzatuvchanlik, ongining ijodkorligi va originalligini belgilaydi. Rubinshteyn aytganidek, qobiliyat spiralsimon tarzda rivojlanadi: bir ko'rinishdagi qobiliyatlar keyingi rivojlanish uchun imkoniyat yaratadi, natijada yana ham yuqori darajadagi qobiliyatlar rivojlanadi. O'rab turgan olam bilan bog'liq bilish qobiliyatlari o'z ichiga sensor qobiliyatlarni (predmetlarni va tashqi vositalarni idrok qilish) kabi intellektual, bilimlarni oson va mahsuldor o'zlashtirish, predmetlarning tabiatini va tevarakatdagi hodisalar haqida ma'lumotlarni anglash jarayonida rivojlanadi. Maktabgacha yosh davrida bevosita bilishning shakllaridan bo'lgan sensor va ko'rgazmali-fazoviy moddiyashtirishni uddalay olish kabi xususiyatlar yuzaga kela boshlaydi.

Intellekt o'zi nima? "Intellekt" (inglizcha - intelligence) tushunchasi ilmiy tadqiqot ob'ekti sifatida 19-asr oxirida ingliz antropologi F.Galton tomonidan kiritilgan. Charlz Darvinning evolyutsion nazariyasi ta'sirida u irsiyat omilini jismoniy va ruhiy jihatdan har qanday individual farqlarning hal qiluvchi sababi deb hisobladi. Aqliy qobiliyatlar haqida gapirganda, aqlning ta'rifi to'xtalib o'tishga arziydi. Psixologiyada intellektning ta'rifi bo'yicha uch xil qarash mavjud:



O'rganish qobiliyatining analogi sifatida bilimlarni egallashning bir turi (Poloni). Mavjud hayotiy muammolarni hal qilish jarayonida mavjud bilimlarni qo'llash qobiliyati sifatida (Piaget).

Yangi, o'zgaruvchan yashash sharoitlariga moslashish qobiliyati sifatida (Stern).

Maktabgacha ta'lim yoshiga yetib, tashkilotga qadam qo'ygan har bir bola avvalo ushbu muhitga moslashish jarayonini boshdan kechiradi. Bolalar oilasidan o'rgangan va bilganlar jarayon, holatlarini o'zida namoyon qila boshlaydi. Bu esa ularning aqliy rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqib amalga oshadi. Bolalarda aqliy rivojlanish ular ona qornidaligi vaqtidan buyon takomillashib boradi. Bolalarning aqliy darajasi va salohiyati tashqi ijtimoiy va irsiy sabablar bilan bir biridan farq qiladi. Lekin 7 yoshgacha bo'lgan bolalardagi intellektual qobiliyatni rivojlantirish ota-ona va maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining muhim vazifasi hisoblanaadi. Kelajak avlodlarni barkamol, har tomonlama intellektual salohiyatli qilib yetishtirish o'zimizning qo'limizda. Olim Veksler fikricha aqlni oqilona fikrlash, maqsadga muvofiq xulq-atvor va dunyo bilan samarali o'zaro ta'sirni birlashtirgan qobiliyat sifatida belgiladi. Bugungi kunga qadar psixologiyada intellektning ta'rifi bo'yicha konsensus mavjud emas.

Bunday ta'riflar bir nechta. Aql - bu shaxsning eng murakkab aqliy qobiliyatlariga berilgan nom. Bunday ta'rif ham mavjud: intellekt - bu shaxsning aqliy qobiliyatlarining nisbatan barqaror tuzilmasi bo'lib, u o'z ichiga olgan barcha bilimlarni, barcha tajribalarni, shuningdek, uni aqliy faoliyat jarayonida yanada to'plash va ishlatish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Bilimlar miqdori va qiziqish doirasi insonning intellektual fazilatlarini belgilovchi omillardir. Kengroq ma'noda intellekt insonning aqliy qobiliyatlarini, unga xos bo'lgan kognitiv jarayonlarning umumiy majmuini anglatadi. Tor ma'noda aql - bu fikrlashdir. Maktabgacha ta'lim jarayonida tarbiyachilar bolalarning fikrlash doirasini kengaytirish, aqliy faolligini iivojlantiruvchi mashg'ulotlar yordamida bolalarning intellektual salohiyatini mustahkamlab boradilar. Bolalardagi intellektual qobiliyat ularning ega bo'lgan bilim va ko'nikmalar majmuini tashkil etadi va buni butun umri davomida bilim olish jarayonida



shakillangan aqliy harakatlari yordamida to'ldirib boradi. Aql bu har bir insonda malum darajada shakillangan hususiyat, ko'nikma va malakalarni muvaffaqiyatli egallashga yordam beradigan barcha narsadir. Bu barcha kognitiv jarayonlarning umumiy natijasidir intellektual (aqliy) qobiliyat(salohiyat) esa tug'ma yoki shu bilan bir qatorda yaxshi ta'lim-tarbiya tufayli rivojlantirilgan bilim,ko'nikmalar yig'indisidir. Psixodiagnostikada aqlni o'lchashda insonning kognitiv xususiyatlarining tuzilishi o'lchanadi. Bu struktura irsiy moyillik asosida vujudga keladi va ular bilan o'zaro ta'sir qilish jarayonida shakllanadi.Ko'pgina olimlar insonning aqliy qobiliyatlari yig'indisining tuzilishini tasavvur qilishga harakat qildilar, natijada Spearman, Thurstone, Guilford, Catell va boshqalar tomonidan aqlning tarkibiy modellari paydo bo'ldi.

Intellekt tushunchasining jamoatchilik, kundalik ongda qanday namoyon bo'lishi masalasi R.Sternberg tomonidan ekspertlar o'rtasida so'rovnomma o'tkazilib, faktorli tahlil usulida olingan natijalar bo'yicha o'rganib chiqdi. Natijada, intellektual xatti-harakatlarning uchta shakli ajratildi:

- og'zaki intellekt (so'z boyligi, bilimdonligi, o'qilgan narsani tushunish qobiliyati);
- muammolarni hal qilish qobiliyati;
- amaliy aql (maqsadga erishish qobiliyai)

Ayni kichik guruh bolalarida yangi so'zlarni o'rganish,ularni to'g'ri qo'llay olish,tushunarli va ravon talaffuz etish ko'nikmalarini shkillantirish jarayoni yuz beradi. O'rta guruhlarda bolalarning aqliy fikrlashini o'stirish uchun muammoli vaziyatlar tarbiyachi tomonida uyushtiriladi.Katta va tayyorlov guruhlarda esa amaliy aql yani maqsadga erishish qobilyati ustida mashg'ultlar olib boriladi.

Mamlakatimizda bolaning aqliy rivojlanishini o'rganishda ular bilimlarni yangi sharoitlarga o'tkazishni talab qiladigan vazifalardan foydalanadilar va shuning uchun tashqi farqlar ortida yashiringan munosabatlarning umumiyligini ta'kidlaydilar.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Пиаже, Ж. Психология интеллекта. - СПб.: Питер, 2003.
2. Тихомирова, Л.Ф. Формирование и развитие интеллектуальных способностей ребенка. - М.: Рольф, 2000.
3. O'ljayevna O. F. Et al. Innovatsion texnologiyalar yordamida bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy salohiyati samaradorligini oshirish yo 'llari //Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. – 2023. – т. 3. – №. 3. – с. 311-315.
4. Urinova F., Azizmatova Z., Fazliddinova s. Didactic foundations for forming the professional competence of the future teacher. //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – т. 3. – №. 4 part 4. – с. 197-202.
5. O'rinova F. Innovative reforms in the modern preschool education system //Science and innovation. – 2023. – т. 2. – №. B2. – с. 557-561.
6. Uljayevna U. F. The activity of developmental centers in the formation of children's abilities /Science and innovation.– 2022.– т.1 №. B2. – с. 107-110.
7. Uljayevna O. F. Et al. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktabga tayyorlash tamoyillari //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – с. 654-659.
8. Uljaevna U. F. Et al. Development of creative activity of preschool children in art game as a psychological and pedagogical problem //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – с. 47-51.
9. Usmonova Shaxnoza Yoqubjon qizi. The concept of cosmonics and its nature”. International conference on Studies in Humanity, Education and Sciences Helsinki, Finland.ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 2, January 10th 2022
10. Urinova Feruza Uljayevna, Valiyeva Hojirakhon Ilhomjon kizi. Development of intellectual abilities of preschool children. Through developing technologies. Modern journal of social sciences and humanities. Issn:2795-4846.Vol.4/(2022).



11. Uljaevna U. F. et al. Necessary conditions for the development of creative thinking in future teachers //Modern Journal of Social Sciences and Humanities. – 2022. – T. 4. – C. 444-448.
12. Uljaevna u. F. Et al. Necessary conditions for the development of creative thinking in future teachers //Modern journal of social sciences and humanities. – 2022. – T. 4. – c. 444-448.
13. Uljayevna O. R. F. Maktabgacha talim tashkiloti tarbiyachisining kasbiy pedagogik kompetensiyani takomillashtirish xususiyatlari //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B2. – C. 88-91.